

THE CONTENT OF FORMING ENVIRONMENTAL PROTECTION SKILLS AND INVOCATING LOVE FOR NATURE IN CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Nurillayeva Gulnigor

Assistant teacher at the University of Innovation Technologies

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda atrof-muhitni asrash ko'nikmalarini shakllantirish va tabiatga mehr uyg'otish metodikasining nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik tarbiyaning mazmuni, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni, bolalarning ekologik ongini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda tarbiyachi faoliyatining metodik asoslari o'rganilgan. Maqolada "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilangan ekologik tarbiya yo'nalishlari, bolalarda tabiat hodisalari haqidagi bilimlarni kengaytirish, tabiatni asrashga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan metodlar tahlil etilgan. Shuningdek, o'yin, tajriba, amaliy faoliyat, loyihaviy ishlar va badiiy asarlar orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik tarbiya, tabiatga mehr, maktabgacha ta'lim, ekologik madaniyat, atrof-muhitni asrash, tarbiyachi faoliyati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты методики формирования у детей дошкольного возраста навыков бережного отношения к окружающей среде и любви к природе. В исследовании анализируется содержание экологического воспитания, его значение в образовательном процессе, факторы, влияющие на развитие экологической культуры у детей, а также методические основы деятельности воспитателя. На основе программы «Первые шаги» рассмотрены методы экологического воспитания через игру, практическую деятельность, проектную работу и художественные произведения. Результаты исследования показали, что участие детей в природоохранных мероприятиях способствует формированию у них любви к природе, чувства ответственности и наблюдательности.

Ключевые слова: экологическое воспитание, любовь к природе, дошкольное образование, экологическая культура, охрана окружающей среды, деятельность воспитателя, экологические игры, программа «Первые шаги».

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of the methodology for developing preschool children's skills in protecting the environment and fostering love for nature. The study analyzes the content and significance of environmental education, factors influencing the formation of ecological culture in children, and the methodological foundations of educators' activities.

Based on the "First Step" state curriculum, the article explores the use of games, practical exercises, project work, and artistic activities as effective tools for environmental education. The research results demonstrate that involving children in eco-friendly activities promotes their sense of responsibility, observation skills, and emotional connection to nature.

Keywords: environmental education, love for nature, preschool education, ecological culture, environmental protection, educator's activity, ecological games, "First Step" curriculum.

KIRISH

Hozirgi davrda insoniyatni tashvishga solayotgan eng dolzarb global muammolardan biri — bu ekologik inqiroz va atrof-muhitning ifloslanishidir. Fan va texnika taraqqiyoti, urbanizatsiya, sanoat korxonalarining kengayishi natijasida tabiatga salbiy ta'sir kuchayib bormoqda. Shu bois ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga ongli munosabatni

rivojlantirish masalalari har bir davlatning ta'lim-tarbiya tizimida muhim o'rin egallamoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimi bu jarayonning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Aynan shu yoshda bolaning atrof-muhitga nisbatan dastlabki tushunchalari, his-tuyg'ulari, qadriyatlari va shaxsiy munosabatlari shakllanadi. Shu sababli bolalarda tabiatni asrash, unga mehr va g'amxo'rlik bilan qarash ko'nikmalarini tarbiyalash — ularning kelajakdagi ekologik madaniyatini shakllantirishning poydevoridir.

O'zbekiston Respublikasida ekologik tarbiya masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabr Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun — O'RQ-595-son, " hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatni asrashga o'rgatish maktabgacha ta'limning muhim vazifalari sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni da ekologik ta'lim va tarbiya barcha ta'lim bosqichlarida amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlanadi.[2]

Ekologik tarbiya jarayonining samaradorligi, avvalo, tarbiyachining metodik mahorati va pedagogik yondashuviga bog'liq. Tarbiyachi bolalarda tabiatni asrash haqidagi bilimlarni faqat nazariy tarzda emas, balki amaliy faoliyat, kuzatish, o'yin va tajriba asosida singdirgandagina bu bilimlar barqaror ko'nikmaga aylanadi [3]. Bolalarning tabiat bilan bevosita muloqoti — daraxt ekish, gullarni parvarish qilish, suvni tejash, chiqindilarni to'g'ri ajratish — ularning ekologik ongini mustahkamlaydi va tabiatga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otadi.

Zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan qaraganda, ekologik tarbiya nafaqat tabiatni asrashni o'rgatish, balki bolalarda hissiy-estetik, axloqiy, ijtimoiy va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish vositasi hamdir. Chunki tabiatni his qilish, uni qadrlash va asrash inson shaxsiyatining muhim sifatleri — mehr, g'amxo'rlik, minnatdorchilik, mas'uliyat kabi fazilatlarni rivojlantiradi [4].

Adabiyotlar tahlili. Bolalarda ekologik madaniyat va tabiatga mehr uyg'otish masalasi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Mazkur yo'nalishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari hamda amaliy jihatlari xorijiy va mahalliy olimlar asarlarida o'z aksini topgan.

Rus pedagogikasida K.D. Ushinskiy, V.A. Suxomlinskiy, A.P. Usova, E.I. Zalkind kabi olimlar tabiatni bola tarbiyasida muhim vosita deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, bola tabiat bilan muloqotda bo'lganida unda kuzatuvchanlik, sabr, go'zallikni his qilish va javobgarlik hissi shakllanadi. Ayniqsa, Suxomlinskiy o'zining "Yurakni bolalarga beraman" asarida tabiatni "bola qalbini uyg'otuvchi eng kuchli tarbiyaviy vosita" sifatida ta'riflaydi .

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham ekologik tarbiya masalasi muhim o'rin tutadi. E.G'ozievning "Bolalar psixologiyasi" asarida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida tabiatni kuzatish, u bilan bevosita muloqot qilishning katta ahamiyatga egaligi qayd etiladi [5]. Tabiatni kuzatish orqali bolalarda diqqat, ijodiy fikrlash va xotira yaxshi rivojlanadi. D. Yo'ldosheva o'zining "Ekologik tarbiyaning pedagogik asoslari" nomli ishida bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun o'yin, amaliy mashg'ulot va oilaviy hamkorlikning o'rni haqida metodik tavsiyalar beradi [6].

A. Zunnunov o'z tadqiqotida maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini tizimli yondashuv asosida o'rganib, "tabiat burchagi"ni samarali tashkil etish bolalarda mustaqil parvarish faoliyatini rivojlantirishda muhim omil

ekanligini ta'kidlaydi [7]. Tabiat burchagi maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zaro yordam, do'stlik va mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Xorijiy adabiyotlarda esa ekologik tarbiyaning barqaror rivojlanish tamoyillari keng yoritilgan. Masalan, M. Palmer ekologik ta'limni erta yoshdan boshlash zarurligini ta'kidlab, "ekologik ong bolalikda shakllansa, u butun umr davom etadi" degan xulosaga keladi. UNESCOning "Education for Sustainable Development" konsepsiyasida esa bolalarni tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish barqaror kelajakning asosiy sharti sifatida belgilangan.

Shunday qilib, o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya maktabgacha ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, bolalarda tabiatni asrash, unga mehr uyg'otish va ekologik ongni shakllantirishning poydevorini tashkil etadi. Ilmiy manbalar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, ekologik tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun tarbiyachining metodik mahorati, ota-onalar bilan hamkorlik va o'yinli-amaliy faoliyatning uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda atrof-muhitni asrash ko'nikmalarini shakllantirish va tabiatga mehr uyg'otish masalasi nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalarda ekologik ong va tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik metodlarni aniqlash hamda ularning amaliy samaradorligini tekshirishdan iboratdir. Shu maqsadda ilmiy adabiyotlar, qonun hujjatlari, davlat dasturlari va ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali ekologik tarbiyaning psixologik-pedagogik asoslari, bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish omillari, o'yin faoliyatining tarbiyaviy imkoniyatlari hamda tabiatga mehr uyg'otishning zamonaviy yondashuvlari o'rganildi. Empirik bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tasavvurlari, tabiat hodisalariga qiziqishi, tabiatdagi o'zgarishlarni idrok etish darajasi kuzatildi. Bolalarning o'yin, mehnat, kuzatish va tajriba faoliyatlari orqali ekologik tarbiyaga bo'lgan munosabatlari aniqlanib, suhbatlar va so'rovnoma orqali ularning ekologik xulq-atvori baholandi.

Olingan ma'lumotlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatni asrash ko'nikmalarini shakllantirishda o'yinli, interfaol va amaliy metodlarning yuqori samaradorlikka ega ekani aniqlandi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, suhbat, test, so'rovnoma va diagnostika metodlari birgalikda qo'llanilib, natijalar nazariy umumlashtirish asosida tahlil qilindi.

Ushbu metodologik yondashuv natijasida bolalarda atrof-muhitga nisbatan ongli munosabat, tabiatga mehr, mas'uliyat va g'amxo'rlik hislari rivojlanishi kuzatildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodika maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya jarayonini takomillashtirishga, tarbiyachilarning faoliyatini samarali tashkil etishga va ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Natijalar. Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrash ko'nikmalarini shakllantirish va tabiatga mehr uyg'otish metodikasini qo'llash samaradorligi nazariy ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Dastlabki bosqichda bolalarning ekologik bilim darajasi, tabiat hodisalariga qiziqishlari va ekologik faoliyatdagi ishtirok

darajalari aniqlanib, ularning aksariyatida ekologik tushunchalar yuzaki shakllangani, tabiatni muhofaza qilishga oid amaliy harakatlar esa kamligicha qolayotgani ma'lum bo'ldi. Ekologik o'yinlar, suhbatlar, tabiatni kuzatish, rasm chizish va mehnat faoliyatlari orqali bolalarda tabiatga nisbatan mehr, qiziqish va mas'uliyat hissi sezilarli darajada ortadi.

Tajriba jarayonida o'tkazilgan "Yashil barmoqlar", "Tabiatni asraylik", "Bizning qushlarimiz", "Gullarni parvarishlaymiz" kabi o'yin va mashg'ulotlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, ularda ekologik ong va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabat shakllanishiga turtki beradi.

Bolalarda ekologik madaniyatning shakllanishi jarayonida o'yinli metodlar, suhbat va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uyg'unligi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Tabiatni kuzatish va o'yin faoliyatlarini integratsiyalashgan holda tashkil etish bolalarning diqqatini jamlash, idrok va tafakkurini faollashtirish, shuningdek, ularda estetik zavqni uyg'otishga yordam berdi. Shu bilan birga, tajriba davomida ota-onalar bilan hamkorlikning kuchaytirilgani ham bolalarning tabiatga bo'lgan munosabatini yanada ijobiy tomonga o'zgartirdi.

Tadqiqot natijalari tahliliga ko'ra, ishlab chiqilgan metodika bolalarda ekologik tarbiya samaradorligini oshirishda yuqori natijalar berdi. Xususan, bolalarning tabiat haqidagi bilimlari kengaydi, ekologik atamalarni to'g'ri ishlatish, o'z xatti-harakatlariga tanqidiy baho berish, tabiatni asrash mas'uliyatini his etish ko'nikmalari shakllandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda atrof-muhitni asrash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun o'yin, tajriba, kuzatish va mehnat faoliyatlarini uyg'unlashtirgan metodik yondashuv yuqori samaradorlik beradi. Bu esa nafaqat bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga, balki ularning hissiy-intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda atrof-muhitni asrash ko'nikmalarini shakllantirish va tabiatga mehr uyg'otish samaradorligi asosan tarbiyachi faoliyatining tashkil etilish darajasi va tanlangan metodik yondashuvga bog'liqdir. An'anaviy mashg'ulotlarda ekologik tarbiya faqat bilim berish bilan chegaralanib qolsa, o'yinli va interfaol yondashuvlar orqali bu jarayon bolalarning shaxsiy ishtiroki, his-tuyg'ulari va amaliy faoliyati bilan boyitiladi. Shuning uchun ham o'yin, tajriba, kuzatish va mehnat faoliyatlarini uyg'unlashtirish bolalarda ekologik ongni shakllantirishning eng tabiiy va samarali yo'li sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida bolalarda ekologik xulq-atvorni shakllantirishda interfaol metodlardan, xususan, "Ekologik viktorina", "Chiqindilarni ajratamiz", "Bizning yashil burchak" kabi o'yinli mashg'ulotlar qo'llanilganda, ular tabiatni asrash zarurati haqida mustaqil fikr yuritishga va muammolarni hal etishda faol ishtirok etishga o'rgandi. Bu esa o'z navbatida bolalarda ekologik madaniyat elementlarini — mas'uliyat, g'amxo'rlik, ehtiyotkorlik va mehr tuyg'ularini shakllantirishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik muhim o'rin tutadi. Oilaviy muhitda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va tozalik madaniyati shakllangan bolalarda maktabgacha ta'lim muassasasidagi ekologik faoliyatlar yanada mazmunli kechadi. Shuning uchun tarbiyachilar ekologik mashg'ulotlarni tashkil etishda ota-onalarni jalb etish, bolalar bilan birgalikda

ekofestivallar, daraxt ekish aksiyalari, “Yashil hafta” tadbirlarini o‘tkazish orqali oilaviy ishtirokni kengaytirishlari lozim.

Bundan tashqari, kuzatishlar davomida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda tabiatni bevosita idrok etish — ya’ni kuzatish, sayr, tajriba va amaliy faoliyatlar orqali o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyatlar bolalarda tabiat hodisalariga hayrat, qiziqish va estetik zavq uyg‘otadi, ularni o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy yondashishga undaydi. Shu jihatdan, ekologik tarbiya jarayonida faqat og‘zaki tushuntirish emas, balki faol ishtirokga asoslangan metodikalar ustuvor bo‘lishi kerak. Tadqiqot natijalarini oldingi ilmiy ishlanmalar bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshda shakllangan ekologik madaniyat keyingi ta’lim bosqichlarida ham barqaror rivojlanadi. Bu esa bolalarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish, ekologik ongli shaxsni tarbiyalash yo‘lida dastlabki poydevorni yaratadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni isbotladiki, ekologik tarbiya jarayonida o‘yinli, interaktiv va amaliy metodlarni qo‘llash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat ekologik madaniyatni rivojlantiradi, balki bolalarda ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, estetik did va mas’uliyat hissini ham oshiradi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarda atrof-muhitni asrash ko‘nikmalarini shakllantirish va tabiatga mehr uyg‘otish jarayoni samarali tashkil etilganda, u nafaqat bolalarning ekologik bilim va tasavvurlarini boyitadi, balki ularning shaxsiy fazilatlarini — mas’uliyat, g‘amxo‘rlik, insonparvarlik va estetik tuyg‘ularini ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan metodika bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda o‘yin, mehnat, tajriba va kuzatish faoliyatlarini integratsiyalashgan holda qo‘llashning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi.

O‘yinli mashg‘ulotlar, interfaol metodlar va amaliy faoliyatlar orqali bolalarda tabiatni asrash zarurati haqida ongli tasavvur shakllanadi. Bu esa ularning tabiat bilan munosabatda bo‘lishda mas’uliyat hissini uyg‘otadi, tabiatdagi har bir o‘zgarishning ahamiyatini anglashga yordam beradi. Shuningdek, tarbiyachining shaxsiy namunasi, mehribonlik va sabr-toqat bilan olib borilgan tarbiyaviy ishlar ekologik tarbiyaning sifatini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot jarayonida oilaning ishtiroki ham alohida o‘rin tutdi. Ota-onalar bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Yashil hafta”, “Tabiatni asraylik” aksiyalari, daraxt ekish, chiqindilarni ajratish kabi amaliy mashg‘ulotlar bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy his-tuyg‘ularni yanada mustahkamladi. Shu bois ekologik tarbiya jarayonida oila, bog‘cha va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiya jarayonini uzluksiz olib borish, uni barcha ta’lim yo‘nalishlari bilan integratsiya qilish zarur. Tarbiyachilar ekologik mashg‘ulotlarda o‘yin, tajriba, kuzatish va amaliy faoliyatlarni uyg‘unlashtirgan metodlardan foydalanishlari lozim. Har bir maktabgacha ta’lim tashkilotida “Ekologik burchak” tashkil etish, bolalar ishtirokida o‘simliklarni parvarishlash, chiqindilarni ajratish, tabiatni tozalash tadbirlarini o‘tkazish tavsiya etiladi. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularga ekologik tarbiya bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berish, oilaviy ekologik loyihalarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachilar

malakasini oshirish jarayoniga ekologik ta'lim metodikalarini kiritish, ularning ekologik madaniyatini doimiy ravishda rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda atrof-muhitni asrash ko'nikmalarini shakllantirish va tabiatga mehr uyg'otish metodikasi maktabgacha ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, u yosh avlodni tabiatga mehr bilan qaraydigan, ekologik jihatdan mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo'nalishdagi pedagogik tadqiqotlar va amaliy ishlarni kengaytirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Preschool Education and Training". – No. O'RQ-595, December 16, 2019. – [Electronic source]: <https://lex.uz/docs/4646908>
2. 2. Law of the Republic of Uzbekistan "On Nature Protection". – No. 754-XII, December 9, 1992. – [Electronic source]: <https://lex.uz/docs/111159>
3. 3. Karimova, N. Innovative approaches to the formation of environmental education in preschool children. // Journal of Education and Development. – 2021. – No. 4. – P. 122–127.
4. 4. G'ulomova, M. The role of play activities in the formation of concepts of ecological culture and nature conservation. // News of Pedagogical Sciences, 2020, No. 2. – P. 63–68.
5. 5. Goziev E. Child Psychology. — Tashkent: Teacher, 2017.
6. 6. Yoldosheva D. Pedagogical Foundations of Ecological Education. — Tashkent: Science, 2020.
7. 7. Zunnunov A. Methodology for the Formation of Ecological Culture in Preschool Education. — Samarkand, 2021.